

ISMİY KESİM VA O'ZLASHTIRMA XABAR

Ma'lumki, ismiy kesim ikki yoki uch qismidan tarkib topadi. Birinchi qism vazifasida ot, otlashgan so'z, olmosh, sifat, ravish, son, harakat nomi va hokazo keladi. Ikkinci qism to'liqsiz fe'l (ekan, emish)dan iborat. Hosil bo'lgan birikma III shaxs shakli deb ataladi. III shaxsda bitta uch qismli shakl ham bor. Unda to'liqsiz fe'lga qo'shimcha (-lar) birikadi. To'rtta qo'shimcha yordamida II shaxs, ikkita qo'shimcha vositasida I shaxs yasaladi. Natijada uch qatorli tuslanish (paradigma) shakllanadi. Buni jadvalda shunday ko'rsatsa bo'ladi:

Shaxs	Ismiy kesim		
	1-qism	2-qism	3-qism
I	bola, do'st, mehmon, shunisi, bittasi, to'ng'ichi, o'qigani, sog', ma'qul, tajribasiz, bor, yo'q, mavjud (emas)	ekan	-man, -miz
II		emish	-san, -sanlar,
III			-siz, -sizlar, -lar

Jadvalda o'zlashtirma xabar ifodalaydigan ismiy kesimning faqat bitta kategorial xususiyati (shaxs kategoriysi) inobatga olingan. To'lig'icha olib qaralsa, har bir shakl besh-oltita kategoriya ko'rsatkichi vazifasini bajaradi hamda belgilanganlik darajasiga qarab shu kategoriyalarga xos ma'nolarни turli (qulay, betaraf, oydinlashtiruvchi, ta'kidlovchi, noqulay) mikromatnda ifodalaydi. Quyida diqqat-e'tibor kommunikativ maqsad kategoriysi ma'nolaridan bittasining voqelanishini tahvil qilishga qaratiladi.

Ismiy kesimda o'zlashtirmalik (*eshitilganlik*) ma'nosing belgilanganlik darajasini aniqlash uchun tahilini III shaxsdan boshlaymiz. Misol tariqasida mikromatn tarkibida kelgan ikki qismli shaklni olib ko'raylik: – *Tirik ekan* (T.Malik, "So'nggi o'q". 343-bet). Shakl sintaktik jihatdan mustaqil, shuning uchun undan keyin nuqta qo'yilgan. Undan predikativlik (o'zga shaxs, hozirgi zamon, belgi-xususiyatning bevosita kuzatilmaganligi) ham anglashiladi. Shunga asoslanib mazkur shaklni mustaqil darak gap deymiz. Ammo so'zlovchi va tinglovchi lisoniy vosita bilan ifodalanmagan. Belgi-xususiyat egasi aynan kim ekanligi ham ma'lum emas.

Bevosita kuzatilmagan belgi-xususiyatning ko'rinishi (*keyin bilganlik, eshitilganlik, o'zlashtirmalik*) ham aniq emas. Avvalo, chiziq ushbu ixcham gap suhbatning bir qismi ekanligini ko'rsatadi. U bevosita oldin kelgan *Komlev? Tirik ekanmi?* degan savolning javobi. Demak, belgi-xususiyatning egasi shu shaxs. Uning olim ekanligi, nohaq o'n yetti yil o'tirib chiqqanligi keyingi gaplardan ma'lum bo'ladi. Bundan tashqari so'zlovchi kapitan Ramziddin Ramazonov, tinglovchi mayor Sanjar Solihov ekanligi mikromatnning oldingi qismida ifodalangan. Shuning uchun uning keyingi qismi misol

tariqasida berilgan gapda tejgalan. Xabar manbayi esa mikromatnning na oldingi va na keyingi qismida ifoda etilmagan. Shunday bo'lsa-da, mikromatnning olib qaralgan qismidan so'zlovchi xabarni aniq shaxsdan eshitib bayon qilganligi ayon. Binobarin xabar manbayini aniq ifodalash axborot uchun zarur emas.

Mustaqil sodda gap hajman kengaysa, o'zlashtirmalikka daxldor xususiyat qisman lisoniy vosita bilan ifodalanib, qisman g'ayrilisoniy omildan anglashiladi: *Kelgan kecham mehmonxonada joy yo'q ekan*. (Sh. Xolmirzayev, "Oq oti". 43-bet). Gapdag'i mehmonxona oti ismiy kesim anglatgan xabar o'rnini ifodalandi. Bundan tashqari o'zlashtirma xabar uchun qulay vosita vazifasini bajaradi. Uning bu vazifasi g'ayrilisoniy omil (*mantiqan ayonlik*) bilan bog'liq. Negaki joy bor-yo'qligi, odatda, mehmonxona ma'muriyat xodimi (navbatchi) dan so'raladi. Bunday nutqiy amalda tinglovchi bo'lgan shaxs boshqa nutqiy amalda so'zlovchi sifatida misol tariqasida berilgan gap bildirgan xabarni o'zlashtirib tinglovchiga bayon qilgan. So'zlovchi va tinglovchi mikromatnning oldingi qismida aniq ifoda etilganidan ushbu gapda tejgalan. Xabar manbayi esa mikromatnda ifoda etilmagan. Bundan uni ifodalashga zarurat yo'q ekanligi to'g'risida xulosa chiqaramiz.

Hajman katta sodda gapda o'zlashtirmalik uchun qulay vosita vazifasini ismiy kesimning birinchi qismi bajarishi mumkin: – *Dadam ketib qolganlarida men chaqaloq ekanman* (O'.Hoshimov, "Qalbingga quloq sol". 401-bet). Ko'riniib turibdiki, kesimning birinchi qismi vazifasidagi ot (*chaqaloq*)ning lug'aviy xususiyati so'zlovchi bevosita xabardor bo'lomagan belgi-xususiyatning o'zlashtirmalik tarzida namoyon bo'lishiga imkon beradi. Gapning birinchi qismi mazmunan alohida propozitsiya bo'lib, tarkibidagi bitta qo'shimcha (-ganlarida) bog'lovchi sifatida keyinga ishora qilsa, ikkinchi qo'shimcha (-m) mikromatnning oldingi qismiga havola qiladi. Demak, ushbu gap mikromatnning boshlanishi ham, oxiri ham emas. Bundan tashqari, so'zlovchi qo'shimcha (-man) va so'z (men) orqali ifodalangan bo'lishiga qaramasdan, uning *Charos* ekanligi mikromatnning oldingi qismidan ma'lum bo'ladi. Gapdan oldingi chiziq ham ushbu suhbat (dialogik mikromatn) ning tarkibiga kirishidan dalolat beradi.

Hajman katta bo'lмаган quyidagi gapda o'zlashtirmalikning namoyon bo'lishiga mustaqil so'zlarning lug'aviy xususiyati, mikromatnning oldingi qismi hamda III shaxsning nutqiy amalda ishtiropi imkon beradi: – *Bobo, mehmon militsiyadan ekan* (T.Malik, "So'nggi o'q". 344-bet). So'zlovchi qishloq soveti raisi, tinglovchi to'qsondan oshgan Soqi bobo, III (o'zga) shaxs, ya'ni mehmon mayor Sanjar Solihov nutqiy amalda ishtirop etmoqda. So'zlovchi tinglovchiga III shaxsning bosh-

qa nutqiy amalda aytgan gapiga to'liqsiz fe'lni qo'shib bayon qilmoqda. Natijada ismiy kesim orqali xabarning o'zlashtirib bayon qilinayotganligi ma'lum bo'ladi.

Ismiy kesim orqali ayni bir nutqiy amalda so'zlovchi tингlovchilardan eshitgan xabarni o'zlashtirib bayon qilishi mumkin:

— *Biz mehmonlarga ozor yetkurmaymiz. Odatimiz shunday.*

— *Odatiringiz qiziq ekan* (T.Malik, "Savohil". 210-bet).

Ismiy kesim orqali o'zlashtirmalikning voqelanishi ga qulaylik tug'diruvchi vositalar ham bor. Nutqiy fe'llar shunday xususiyatga ega. Nutqiy fe'l so'z birikmasi tarkibida kelsa, o'zlashtirma xabar bitta sodda gapda o'z ifodasini topadi: — *Oyimning aytishiga qaraganda, bu – mening beshigim ekan* (O'.Hoshimov, "Ikki eshik orasi". 193-bet). Grammatik jihatdan so'z birikmasi mazmunan alohida propozitsiyadan iborat bo'lib, o'z subyekt-predikatiga ega. Nutq fe'lining subyekti xabar manbayi vazifasini bajaradi. Shu sababli u tushirib qoldirilsa, so'zlovchi xabarni kimdan eshitib bayon qilayotganligi aniq bo'lmaydi. Ushbu misol asar qahramonining monologik nutqidan bo'lsa, quyidagi misol dialogik mikromatnning bir qismidir: — *Darg'aning aytishicha, anov tepalik ortida turkmanlarning ovuli bor ekan* (T.Malik, "Savohil". 126-bet). Ushbu misolda so'z birikmasining mazmuni va vazifasi oldingi misolga mos keladi. U mantiqan alohida propozitsiya bo'lib, vazifasi jihatdan qulay vosita hamda xabar manbayidir. Farq shundaki, u ushbu misolda shaklan ixcham, ko'makchi (*qaraganda*) o'rnda qo'shimcha (-cha) qo'llangan. Bundan tashqari, so'z birikmasidan keyin ikkinchi misolda tinish belgisi (vergul) qo'yilgan, birlinchisida qo'yilmagan. Shuningdek, birlinchisida ega (*bu*)dan keyin chiziq qo'yilgan. Holbuki, ismiy kesimning birlinchisida egalik ma'nosi ham qo'shimcha (-im), ham so'z (*mening*) bilan ifodalanib ta'kidlangan. Shu sababli eganining kesimdan chiziq vositasida ajratib ko'rsatilganligi tushunarli emas.

So'z birikmasining subeykti olmosh bilan ifodalansa, xabar, manbaning aynan kim ekanligi hamda tejalgan boshqa so'zlar mikromatnning oldingi yoki keyingi qismidan oydinlashadi: *O'zining aytishicha xitoylik tabib ekan* (T.Malik, "So'nggi o'q". 422-bet). Mikromatnning oldingi qismidan so'zlovchi shifoxona navbatchisi ekanligi ma'lum bo'lsa, uning keyingi qismidan tinglovchi mayor Solihov ekanligi ayon bo'ladi. Demak, navbatchi mayorga tabibning o'zidan eshitgan xabarni o'zlashtirib bayon qilgan. Ushbu misolda xabar manbayi o'zlik olmoshi bilan, uning kasbi va vatani ot orqali ifoda etilgan. Gapning egasi esa tejalgan. Mikromatn tarkibidagi ismiy kesimli gapda xabar manbayi vazifasida faqat qo'shimcha qo'llanadi. Ismiy kesimning boshqa jihatlari so'z bilan ifodalanib, gap hajman kengayadi: *Aytishiga qaraganda, No'g'ayqo'rg'onda turishganida ularning hovlisida ham shunaqa olma bor ekan* (O'.Hoshimov, "Ikki eshik orasi". 570-bet). Ish-harakat egasi, uning belgisi, o'rni (ikki marta), zamoni so'z bilan ifodalangan. Shu bilan birga qulay vosita subyekti vazifasida qo'shimcha (-i) kelganidan so'z tejalgan. Natijada mikromatnning oldingi qismi bilan shaklan va mazmunan aloqadorlik paydo bo'ladi.

Xabar manbayi ham, qo'shimcha ham so'z bilan ifodalanib, o'zlashtirilgan xabar sabab-oqibat munosabatini bildirsa, gap hajman yanada kengayadi. Ismiy kesimning egasi tejilib, mikromatnning oldingi qismida ifodalansa, fikr bitta gap doirasiga sig'may qoladi. Propozitsiya soni ortib, zohiriy va mazmuniy nomutanosiblik voqelanadi: *Xo'sh, inson kim o'zi? Mazkur jamiyatimizning fikricha "mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mahsuli" ekan, demak, yozuvchi ham shu munosabatlar mahsulidir* (Sh.Xolmirzayev, "Ot yili". 333-bet).

Xabar manbayi vazifasidagi nutq fe'l alohida gap shaklida kelishi ham mumkin: *Oyim aytganlar, tushda ko'ringan oqlik yaxshilik belgisi ekan* (T.Malik, "Talvasa". 282-bet). Nutq fe'lining egasi qo'shimchadan tashqari ot bilan ham ifodalangan. Chunki so'zlovchi xabarni aynan onasi aytganligini nazarda tutgan. Mikromatnning oldingi qismidan ma'lum bo'lganidan so'zlovchi lisoniy vosita bilan ifodalanmay tejalgan. Nutqiy vaziyat taqozo etganda nutq fe'lining egasi faqat qo'shimcha bilan ifodalanadi. Uning boshqa valentligi voqelanib, gap oxiriga nuqta qo'yiladi. Bu bilan xabar manbayini ajratib ko'rsatishga erishiladi: *Rost aytdi. Bizda shunaqa desam, boshqa joylarda besh battar ekan* (O'.Hoshimov, "Ikki eshik orasi". 556-bet). Tejalgan vositalardan so'zlovchi mikromatn sarlavhasida **Umar zakunchi** deb ko'rsatilgan. Xabar manbayi egasi mikromatnning oldingi qismidan ma'lum bo'ladi (tibbiyot oliygohida zillab yurgan yugurdaklardan bittasi). *Bizda, boshqa joylarda deganda tibbiyot va yuridik oliygohlari nazarda tutilganligi mikromatnning oldingi (birinchisi) va keyingi (ikkinchisi) qismida ifodalangan*. Uch sahifalik mikromatn to'lig'icha olib qaralsa, uning umumiyl mazmuni (makropozitsiyasi)ni *oliy o'quv yurtlariga qabulda poraxo'rlik avj o'lgan* deb belgilasa bo'ladi. Poraxo'rlik zamonini aniqlash uchun makromatnga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Asar 1982–1985-yillarda yozilgandan sho'ro saltanatidagi poraxo'rlik nazarda tutilganligi ma'lum bo'ladi.

Nutq fe'l (*aytmoq*) yordamida xabarning o'zlashtirib bayon qilinishi ifodalansa, *eshitmoq* fe'l ismiy kesim anglatgan ish-harakatni so'zlovchi birovdan eshitib bayon qilganligini bildiradi: *Eshitganman Olchindan, oting Boychiborning avlodidan ekan* (Sh.Xolmirzayev, "Ot yili". 332-bet). Mikromatnning ikki gapdan iborat ushbu qismida so'zlovchi aniq shaxs aytgan xabarni o'zlashtirib emas, eshitganlik tarzida bayon qilgan. Aks holda birlinchisida gapda *aytmoq* fe'l qo'llangan bo'lar edi.

Nutqiy amal imkon berganda qulaylik tug'diruvchi vosita birgina fe'lidan iborat bo'ladi. Bunday holda komunikativ ma'no eshitganlik tarzida namoyon bo'ladiyu, uning manbayi, ya'ni so'zlovchi uni kimdan eshitganligi aniq bo'lmaydi: *Eshitdim, siz obro'-e'tiborli ayol ekansiz...* (O'.Hoshimov, "Qalbingga qulq sol". 447-bet). So'zlovchi qo'shimcha (-m), tinglovchi olmosh (*siz*) bilan ifodalanganidan ikkala gapda ham fikr nisbiy tugal. Fikrning shaklan va mazmunan tugal bo'lishi uchun mikromatnning oldingi va keyingi qismiga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Nutqiy amal talabiga ko'ra qulay vosita vazifasini bajaruvchi gap hajman katta bo'lganda ham faqat xabar manbayi, ya'ni so'zlovchi xabarni kimdan eshit-

anligi emas, so'zlovchi, tinglovchi, o'zga shaxs, hatto to'ldiruvchi vazifasidagi olmosh bilan ot (*shu gapni*) ham fikrning tugal bo'lishiga imkon bermaydi: *Bultur Toshkentga borganimda shu gapni eshitib, qulog'imga ishonmadim. Yo'q, rost ekan* (O'.Hoshimov, "Ikki eshik orasi". 445-bet). Mikromatnning oldingi qismidan o'zga shaxs so'zlovchining tog'asi ekanligi ma'lum bo'ladi. Misoldagi *shu gap rost ekan* deganda "zamon o'zgarib, yurt so'rab yurgan, qanchadan qancha odamni kesib yuborgan tog'asining o'zi kesilib ketganligi" nazarda

tutilgan. Mikromatnning keyingi qismida esa tog'asi qamalganligining sababi bayon qilingan. Unga begunoh odamlarni "xalq dushmani" deb qamatgan, degan ayb qo'yildi. Demak, misol tariqasida keltirilgan ikkita gap o'zidan oldingi va keyingi gaplar qo'shib qaralgandagi na zohiran va mazmunan tugallangan bo'ladi.

Xullas, tanlangan tadqiq usuliga ko'ra amalga os-hirilgan tahlil o'zbek tili grammatikasi shakllarining o'ziga xos xususiyatini to'liqroq yoritish imkoniyatini beradi, deya xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. G'.Zikrillayev. Ruh va til. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Hozirgi zamon o'zbek tili. – Toshkent: Fan, 1957.
3. A.Hojiyev. To'liqsiz fe'l. – Toshkent: Fan, 1970.
4. A.Hojiyev. Fe'l. – Toshkent: Fan, 1973.
5. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya, – Toshkent: Fan, 1975.
6. U.Tursunov, J.Muxtorov, J.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
7. Istiqlol va ona tili ta'limi (to'plam). – Toshkent: Fan, 2000.
8. G'.Zikrillayev. O'zbek tili morfologiyasi. – Buxoro, 1994.

Nilufar ADIZOVA,
Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasiga o'qituvchisi

POETIK MATNDA GIPONIMIYA HODISASI

Ma'lumki, til kishilar o'tasida eng muhim aloqa vositasи sifatida kommunikativ, shu bilan bir qatorda, obyektiv borliqdagi narsa-predmetlarni, ularning belgi-xususiyatlari, voqeа-hodisalar, shaxs haqidagi tushunchalarni bir-biridan farqlashga xizmat qiluvchi nominativ vazifani ham bajaradi. Tilning yana bir muhim funksiyasi mavjudki, u nutqning jozibador bo'lishiga, emotSIONallikni ta'minlashga, individuallikka erishishga xizmat qiluvchi emotSIONal-ekspressiv vazifasidir. Tilning haqiqiy go'zalligi ham shu asosda namoyon bo'ladi. Har bir millat o'zining milliy madaniyati, urf-odatlari, an'ana va qadriyatlar, ulkan ma'naviy boyligi hamda milliy ruhini til vositasida yaratadi.

Milliy madaniyat taraqqiyotida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Badiiy adabiyot tilning emotSIONal-ekspressiv qudratini namoyon etadi. Obrazlarning xatti-harakati, ruhiyatini tasvirlash, ijodkorning emotSIONal maqsadlarini amalga oshirish til elementlari orqali yuzaga chiqariladi.

Tilning eng muhim lisoniy birligi – leksemalar semantik munosabatlarda turli xil paradigma hosil qilgan holda mavjud bo'ladi va haqiqiy jozibasini ifoda etadi. Ular badiiy asar mazmunini boyituvchi vosita sifatida ijodkorning o'ziga xos, individual uslubini belgilaydi, so'z qo'llash mahoratini namoyon etadi, badiiy-estetik maqsadini amalga oshirishning muhim omili sifatida qo'llanadi. Jumladan, tilning giponimiya hodisasi ham badiiy asar mazmunini boyitish, qahramonlar ruhiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ulkan poetik mahorat sohibi, so'z san'atkori Erkin Vohidov ijodida rang-barang lisoniy vositalarning turli munosabatlar asosida jozibadorlik, o'ziga xoslik baxsh etganini ko'rish mumkin. Shunga ko'ra, shoir qalamiga mansub "Orzu chashmasi" dostonida paradigmatic tarzda asarga o'zgacha mazmun olib kirgan giponimiya hodisasining badiiy-estetik jozibasini ba'zi misollar asosida kuzatish mumkin.

Giponimiya semantik munosabatning bir turi bo'lib, gipo-giperonimiya, ya'ni tur-jins munosabatidir. Giponim munosabatda giperonim (jins) va giponim (tur) tushunchasi bir-biridan farqlanadi. Giperonim jins belgisini bildiruvchi predmet, shaxs yoki hodisaning nomini ifodalovchi ko'pgina ma'noni semantik jihatdan o'zida birlashtirib turuvchi umumiylar tizimning markaziy lek-semasi, dominantasi sifatida namoyon bo'luvchi lug'aviy birlik. Giponim esa ma'lum jins turining nomini hamda o'zining semantik tarkibida implisit tarzda jins ma'nosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo'lgan leksik birlikdir. Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega bo'lib, obyektiv borliqdagi umumiylar tushunchasi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, barcha badiiy asarlarda keng qo'llanadigan "**gul**" giperonimini oladigan bo'lsak, u jins ma'nosini ifodalovchi leksema sifatida gulning barcha turini ifodalovchi leksemalarni leksik-semantik munosabat asosida birlashtirib, leksik-semantik guruh hosil qiladi. Shu boisdan gul leksemasi giperonim sifatida giponim bilan leksik-semantik aloqaga kirisha oladi: **gul-atirgul, gul-rayhon, gul-binafsha, gul-lola...**